

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AHMEDOV ABDULAZIZ MASHRABOVICH

**RAQAMLI PEDAGOGIK MUHITDA TALABALARNING AXBOROT
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlение avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD) po
pedagogicheskim naukam**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Ahmedov Abdulaziz Mashrabovich

Raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini
rivojlantirish.....3

Ахмедов Абдулазиз Машрабович

Развитие информационной компетентности студентов в цифровой
педагогической среде.....20

Ahmedov Abdulaziz Mashrabovich

Development of information competence of students in the digital pedagogical
environment.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных вакансий
List of published works.....43

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AHMEDOV ABDULAZIZ MASHRABOVICH

**RAQAMLI PEDAGOGIK MUHITDA TALABALARNING AXBOROT
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4310 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karlibayeva Guljahon Yermekbayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Soliyev Ilxomjon Sobirovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil « ___ » _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-51; ye-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « ___ » _____ kuni tarqatildi.

2023-yil « ___ » _____ da _____ - raqamli reestr bayonnomasi.

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash rais o'rinbosari, p.f.d.,
professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.n., dotsent

S.S.Bulatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning kreativ modulli texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. YUNESKONing "Fanlarni o'rganish bo'yicha xalqaro konvensiyasi" asosida o'qitishning jahon ta'limi andozalariga mos ilg'or usul va metodlarini joriy etish, raqamli pedagogik muhitda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, raqamli pedagogik muhitda texnologik innovatsiyalarning birligini ta'minlash, ilmiy va zamonaviy pedagogik muhitni yaratish bo'yicha amaliy loyihalarni tatbiq etishga doir tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida raqamli pedagogik muhitda talabalarni kasbiy-pedagogik tayyorlash, pedagogik faoliyatini shakllantirishning diagnostik tizimini takomillashtirish, ijodkorlikni shakllantirishning elektron monitoring tizimini yaratish, axborot va pedagogik faoliyat madaniyati muhitini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Rivojlantirishning raqamli texnologiyasini joriy etishning nazariy imkoniyatlarini aniqlashtirish, mutaxassislarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari, modellarini takomillashtirish, xususiy-didaktik o'qitish metodlari va elektron platformalar, virtual va animatsiyali ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari, talabani tarbiyalash va rivojlantirishda raqamlashtirilgan, innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik modellardan foydalanish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazalarini raqamlashtirilgan ta'lim sharoitiga transformatsiyalashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda". "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, informatika singari boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan ravishda o'rganish"¹ ustivor vazifalar etib belgilandi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risida. PF-4947-son. 2017-yil 7-fevrl. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ilmiy tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda axborot ta'lim muhitida axborot texnologiyalarining mazmuni va o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, F.M.Zakirova, N.I.Taylaqov, U.Y.Yuldashev, M.E.Mamarajabov, X.Sh.Qodirov; talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha B.S.Abdullayeva, R.X.Djurayev, N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinov, M.A.Innazarov, J.O.Xakimov va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish masalalari S.L.Atannasyan, M.V.Goryacheva, E.S.Polat, I.V.Robert; axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari I.B.Dokucheva, I.G.Zaxarova, A.A.Kuznetsov, Ye.Ya.Morozova, G.I.Popova, I.V.Robert va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlari J.Anderson, M.Burns, L.Buus, Dhawal Shah, M.Dougiamas, M.Laanpere, R.E.Mayer, Y.A.Nabi, H.L.Narayan, G.Singh, V.T.Shailashri va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi masalalari atroflicha o'rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170923121 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2020-yy).

Tadqiqotning maqsadi raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish mazmunini takomillashtirish;

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini baholash mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinovda Toshkent davlat pedagogika universiteti, Guliston davlat universiteti va Farg'ona davlat universitetining 215 nafar talabasi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy, metodik, elektron manbalarni qiyosiy-tanqidiy tahlil etish, oliy ta'lim muassasalaridagi interfaol pedagogik tajribalarni o'rganish, anketa, suhbat, kuzatish, test, loyihalash, ekspert baholash, tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari sun'iy ravishda yaratilgan hamda sinergetik tasirga ega bo'lgan raqamli-pedagogik jarayonning moslashuvchanlik tamoyilini elektron ta'lim muhitini intensiv yaratish funksiyasi imkoniyatlariga bosqichma-bosqich moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish mazmuni pedagogik jarayonlarni tahliliy-sintetik nazorat etishga ustivorlik berishga qaratilgan o'quv-kasbiy faoliyat, illyustrativ-muammoli, izlanishli-pedagogik vaziyatlarni loyihalashtirish hamda audio va vizual materiallarni o'quv jarayonining virtual reallik qonuniyatlariga frontal moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish modeli ta'limning amaliy yo'nalganligini ta'minlash, tashkiliy-metodik ta'minotni loyihalashtirish hamda ishbilarmonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan rolli o'yinlarni ketma-ket qo'llashda didaktik va shaxsiy tayyorgarlikni muntazam hisobga olish asosida takomillashtirgan;

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish mezonlari ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, evrestik-ijodiy va bazaviy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda baholashning ijodiy, produktiv va reproduktiv darajalarini baholash indikatorlariga bosqichma-bosqich sinxronlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi asosida "Ta'limda axborot texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan;

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishda "Ta'limda axborot texnologiyalari" nomli mobil ilova yaratilgan;

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishda “Ta’limda axborot texnologiyalari” fanidan o‘quv-uslubiy majmua yaratilgan;

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning raqamli pedagogik muhit sharoitida “Ta’limda axborot texnologiyalari” fanidan “AKT” izohli lug‘ati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiya ishida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanilgani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari yordamida tasdiqlangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati raqamli pedagogik muhitda, xususan, “Ta’limda axborot texnologiyalari” fanlarida interfaol ta’lim vositalaridan samarali foydalanish shakllari va raqamli texnologiyalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarini tarkib toptirish, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, bakalavriat ta’lim yo‘nalishida raqamlali pedagogik muhitni takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘qitish metodikasining mazmuni va texnologik asoslarini rivojlantirishda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadida yaratilgan qo‘llanmalar, “Ta’limda axborot texnologiyalari” fanining metodik ta’minotini mustahkamlashga xizmat qilishi va oliy ta’lim muassasalari talabalarini tayyorlash bo‘yicha nazariy va metodik tavsiyalar keltirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari sun‘iy ravishda yaratilgan hamda sinergetik tasirga ega bo‘lgan raqamli-pedagogik jarayonning moslashuvchanlik tamoyilini elektron ta’lim muhitini intensiv yaratish funksiyasi imkoniyatlariga bosqichma-bosqich moslashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Ta’limda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug‘i asosida berilgan 68-270 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, metodik imkoniyatlarini tahlil qilish imkoni kengaytirilgan;

raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish mazmuni pedagogik jarayonlarni tahliliy-sintetik nazorat etishga ustivorlik berishga qaratilgan o‘quv-kasbiy faoliyat, illyustrativ-muammoli, izlanishli pedagogik vaziyatlarni loyihalashtirish hamda audio va vizual materiallarni o‘quv jarayonining virtual reallik qonuniyatlariga frontal moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Ta’limda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi

68-sonli buyrug‘i asosida berilgan 68-270 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, raqamli pedagogik muhitda talabalarda axborot texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanib, axborot kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

raqamli pedagogik muhitda talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish modeli ta‘limning amaliy yo‘nalganligini ta‘minlash, tashkiliy-metodik ta‘minotni loyihalashtirish hamda ishbilarmonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan rolli o‘yinlarni ketma-ket qo‘llashda didaktik va shaxsiy tayyorgarlikni muntazam hisobga olish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Ta‘limda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug‘i asosida berilgan 68-270 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, raqamli pedagogik muhitda talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish imkoni oshirilgan;

raqamli pedagogik muhitda talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish mezonlari ma‘lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, evrestik-ijodiy va bazaviy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda baholashning ijodiy, produktiv va reproduktiv darajalarini baholash indikatorlariga bosqichma-bosqich sinxronlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Ta‘limda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug‘i asosida berilgan 68-270 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, raqamli pedagogik muhitda talabalarda axborot kompetentligini baholash mezonlarini takomillashtirish samaradorligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotimiz natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob‘yekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma‘lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning “**Raqamli pedagogik muhitda talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik

jihatlari, axborot kompetentligini rivojlantirishda raqamli pedagogik muhitning ahamiyati va raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati yoritilgan.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari sifatida mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish; oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish; sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash belgilangan.

Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, kompetentlikka qaratilgan talablar, ta'lim oluvchilarni kasbiy tayyorlashning sifati, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, kasbiy faoliyatga tayyorligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari tahlil qilingan. Bugungi kunga kelib, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish g'oyasini aks ettirish bo'yicha ma'lum ilmiy tajriba to'plangan. Mamlakatimiz olimlari A.A.Abduqodirov, B.S.Abdullayeva, R.X.Djurayev, F.M.Zakirova, N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinovlarning, M.E.Mamarajabov, X.Sh.Qodirov; M.A.Innazarov, J.O.Xakimovning o'quv jarayonida raqamli pedagogik muhit, masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish, oliy ta'limni elektron resurslardan foydalangan holda boshqarish, ta'lim jarayonida yagona axborot ta'lim muhitini yaratish; V.A.Bolotov, Ye.V.Bondarevskaya, E.D.Dneprov, I.A.Zimnyaya, V.V.Krayevskiy, A.V.Xutorskoyning elektron o'quv resurslarini yaratish va ularga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish; A.G.Bermusning axborot texnologiyalaridan ta'lim tizimida foydalanish masalalari aks ettirilgan ishlari tahlil etildi.

Xususan, O.A.Qo'ysinovning ta'kidlashicha, "bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi" deyilganda muayyan kasbiy sohada faoliyat ko'rsatadigan pedagog-mutaxassisning tayanch kompetensiyalari, masalan, o'qituvchi, tarbiyachi, pedagog-psixolog, muhandis-pedagog, pedagog-defektolog va boshqalarning kasbiy kompetentligi tushuniladi

A.G.Bermus va A.V.Xutorskoy kabi olimlar ta'limda kompetentlikka asoslangan yondashuvning ahamiyatli elementlarini ajratib ko'rsatgan. Bunday elementlarga rivojlantiruvchi va shaxsga yo'naltirilgan ta'limning psixologik-pedagogik konsepsiyasida ifodalangan, an'anaviy bilim va malakalarning barcha jihatlari qamrab olgan kompetensiyalar, umumlashtirilgan, kommunikativ, ijodiy, uslubiy va g'oyaviy ko'nikmalar sifatida asosli yondashuvni taqdim etish kabilar kirishi ta'kidlangan. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili kompetentlikka asoslangan yondashuvning asosiy tushunchalari "kompetentlik" va "kompetensiya" ekanini ko'rsatdi.

S.V.Petrenko raqamli pedagogik muhitni shaxsning tarbiyasi, ta'limi va rivojlanish maqsadlariga bo'ysunadigan ta'lim faoliyati va uning axborot ta'minotini yagona texnologik vositalar yordamida ta'minlaydigan integrativ dasturiy-kommunikativ pedagogik tizim sifatida ta'riflaydi.

M.A.Skiba raqamli pedagogik muhitni maxsus tashkil etilgan, sun'iy ravishda yaratilgan, sinergetik ta'sirga ega bo'lgan, natija beradigan, axborotni saqlash, qayta ishlash, uzatish, axborotga kirish, uni olish va ikki tomonlama aloqani ta'minlaydigan, kasbga yo'naltirilgan ta'limiy-ilmiy kommunikatsiyani amalga oshiradigan, kasbiy ta'limning maqsad va vazifalarini zamonaviy sharoitlarda amalga oshirish zarur bo'lgan funksiyalarni hisobga olgan holda amalga oshirishga yordam beradigan tashkily-metodik, texnik-dasturiy vositalar yig'indisi sifatida ishlab chiqilgan muhitni tushunishga tayanadi.

Raqamli pedagogik muhit tizim sifatida xususiyatlari va komponentlari o'rganildi.

Raqamli pedagogik muhit tizim sifatidagi xususiyatlariga: Elementlari bir-biri bilan haqiqiy aloqalarga ega, Elementlar majmuining tartibga solingan, Tizimning ichki va tashqi chegaralari mavjudligi, Raqamli pedagogik muhitning ichki yaxlitligi, Inson omiliga bog'liq bo'lgan shaxsga yo'naltirilgan, Raqamli pedagogik muhit har doim boshqa tizimlar bilan bog'langanlik kabi xususiyatlarga ega.

Raqamli pedagogik muhit komponentlarini: tashkiliy-metodik komponent, ta'lim (pedagogik) komponent, texnik komponent, dasturiy komponent, axborot-ta'lim komponent va shaxsiy komponent tashkil qiladi.

Fanga oid komponent talabaning axborot texnologiyalari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini ifodalaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari komponenti pedagogning o'z faoliyatida zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish zarurati natijasida paydo bo'ladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi yangi axborot texnologiyalari, resurslarni yaratish, shuningdek, yangi xizmatlarni, shu jumladan tarmoq xizmatlarini taqdim etishning jadal jarayoni bilan bog'liq. Oliy ta'lim muassasasi tayyorlash jarayoni talabalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash sohasida maqsadga yo'naltirilgan tarzda o'qitishni taqozo etadi, nazariy va amaliy ta'lim berish, pedagogik amaliyot, kurs va diplom loyihalarini bajarishni o'z ichiga olishi zarur va bularning barchasi talabalarning o'rganilayotgan sifatini kelgusida rivojlanishi uchun zarur asos bo'ladi.

Zamonaviy pedagogikaning axborot kompetentligiga qo'yiladigan talablari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, jamiyatning ham ta'limning ham axborotlashuvi sohasida davlat va mintaqaviy dasturlarni amalga oshirish munosabati bilan tinimsiz oshib boradi. Shunga asoslanib, raqamli ta'lim muhiti konseptual jihatdan pedagog, talaba va didaktik qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanishga asoslangan ta'lim jarayonidagi inson bilimlari va aloqalari tizimi hisoblanib, axborotning o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan yaratilgan.

Ta'limning axborot texnologiyalari o'quv jarayonida har doim mavjud bo'lsa-da, fundamental bo'lmagan yana bir umumiy tamoyilni joriy etish, asoslash va ochishni talab qildi. Bu yerda gap kommunikatsiya, tahsil oluvchi va tahsil beruvchi, bu holda kompyuter va tahsil oluvchi orasidagi dialogni tashkil etish haqida ketmoqda. Faqat kompyuterga asoslangan ta'limga xos bo'lgan ushbu yangi tamoyilni kommunikatsiyaning kognitivligi tamoyili deb atash mumkin. Raqamli pedagogik muhitda ta'lim muassasalari talabalarning axborot kompetentligini

rivojlantirishning amaliy holati bo'yicha milliy va xalqaro tajribalar ko'rib chiqildi, axborot kompetentligi nazariy va amaliy nuqtai-nazardan taqdim etildi va talabalarning axborot kompetentligi tarkibiy qismlari aniqlandi hamda talabalarning axborot kompetentligining tarkibiy qismlari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning **“Raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari”** nomli ikkinchi bobida raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish modeli, axborot kompetentligini raqamli pedagogik muhitda rivojlantirishning shakl, metod, vositalari va raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari bayon etilgan.

Modellashtirish pedagoglar tadqiqotchilik faoliyatining ajralmas sohasidir. Bu ta'lim jarayonini takomillashtirish, uning samaradorligi va sifatini oshirish yo'llarini tushunishga yordam beradi. Pedagogik modelni loyihalashtirish nazariyasiga (A.N.Xodusov, S.A.Kononova) asoslanib, raqamli pedagogik muhit sharoitida o'quvchilarning axborot kompetentligini o'rgatish uchun taklif qilingan model, fikrimizcha, kuzatuv va aks ettirish elementlarini o'z ichiga olgan kompleksdir, keng qamrovli tadqiqot ishining konseptual-prognostik nazariy-amaliy modeli yaratilgan (3-rasm).

Ishlab chiqilgan modelning komponentlari sifatida: maqsad, metodologik, mazmunli-tashkiliy, natijaviy komponentlar olindi.

Maqsadli blokda maqsad (raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish), unga muvofiq tarzda malaka talablari va o'quv rejasining tahlilidan iborat talabalarning axborot kompetentligini belgilash jarayoni aks ettirilgan.


Raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini o'rgatish modelining navbatdagi tarkibiy elementi nazariy, o'quv va shaxsiy tayyorgarlikni o'z ichiga olgan tashkiliy-metodik blokdir.

Malaka talablariga muvofiq kompetentlikka asoslangan yondashuvni amalga oshirish o'quv jarayonida o'qitishning faol va interfaol shakllaridan (kompyuter simulyatsiyalari, ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, psixologik va boshqa treninglar) keng foydalanishni ta'minlashi kerakligi ta'kidlangan.

Oliy ta'lim muassasasi talabasining axborot kompetentligi uning kasbiy bilim salohiyatini oshirishga imkon beradigan yangi ta'lim texnikasining turli yo'nalishlari orasidan bir qator usullar (o'quv loyihalari; hamkorlikda ta'lim olish, "E-Portfolio", Keys-stadi) ajratib ko'rsatadi.

Baholash mezonlari bloki talabaning axborot kompetentligini shakllantirish mezonlarini tashxis qilishini o'z ichiga oladi. Bu yerda uchta tasvirlovchini (past, o'rtacha va yuqori) o'z ichiga olgan uch komponent (motivatsion, kognitiv, faoliyat) axborot kompetentligini shakllantirish mezonlari tizimi sifatida xizmat qilgan.

Natija bloki raqamli pedagogik muhit sharoitida talabalarning axborot-kommunikatsion texnologik kompetentligining shakllanganligining muayyan darajasini aks ettiradi. Raqamli pedagogik muhit sharoitida talabalarning axborot kompetentligini shakllantirish modeliga kiritilgan barcha bloklar o'zaro bog'liqlikda ya'ni bloklardan biridagi har qanday o'zgarish boshqa komponentlarning o'zgarishiga olib keladi.



1-rasm. Raqamli pedagogik muhitda talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha o'qitish modeli

Bugungi kunda pedagogik amaliyotga keng joriy qilinayotgan hamda talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish va o'quv kursining kasbga yo'naltirilganligini oshirishga yordam beradigan bir qator xususiy-didaktik o'qitish metodlarini qayd etish mumkin: global kompetensiya metodi, hamkorlikda ta'lim, loyihalashgan ta'lim metodlari (Delphi, PERT).

“Ta’limda axborot texnologiyalari” fanini o’rganishni optimallashtirish talabalarning raqamli kompetentligi shakllanlanganligining zarur darajasiga erishish va pedagogik ta’limni axborotlashtirish sharoitida ularning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Taklif etilayotgan metod o’qituvchilarga ijodkorlik va pedagogik mahoratni namoyish etish imkoniyatini beradi va ularni mashg’ulotlarda to’liq almashtirish maqsadida emas, balki darslarni o’tkazish uchun asos, raqamli texnologiyalardan mashg’ulotlarda foydalanish o’quv jarayonini xilma-xillashtirish, xilma-xil tur, shakl, usullarini qo’llash imkonini beradi, diqqatning davomiyligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, ko’rgazmalilik darajasini oshirish vositasi bo’lib xizmat qiladi.

Dasturlarni baholash va tahlil qilish (PERT metodi). Loyihani boshqarishda loyihani baholash texnikasi yoki PERT ma’lum bir vazifa yoki faoliyatni tugatish vaqtini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu loyiha davomida barcha vazifalarni to’g’ri rejalashtirish va muvofiqlashtirishga yordam beradigan tizim. Shuningdek, u umumiy loyihaning borishini yoki uning yetishmasligini kuzatishga yordam beradi. Loyihani baholash texnikasini tasvirlash uchun oqim sxemasidan foydalaniladi. Loyihani bajarish uchun zarur bo’lgan turli vazifalar aniqlanadi. Vazifalarni to’g’ri tartibda qo’shganingizga ishonch hosil qilish va har bir vazifaning davomiyligini ko’rsatish zarur. Tarmoq diagrammasini yaratish, faoliyatlarni ifodalash uchun o’qlardan foydalanish va tugunlardan muhim bosqich sifatida foydalanish mumkin.

Delphi usuli yoki Delphi texnikasi tizimli aloqa texnikasi yoki usuli bo’lib, dastlab mutaxassislar guruhiga tayanadigan tizimli, interaktiv prognozlash usuli sifatida ishlab chiqilgan. Texnika yuzma-yuz uchrashuvlarda foydalanish uchun ham moslashtirilishi mumkin va keyinchalik mini-Delphi deb ataladi. Delphi biznesni bashorat qilish uchun keng qo’llaniladi va boshqa tuzilgan prognozlash yondashuvi, bashorat bozorlariga nisbatan ma’lum afzalliklarga ega.

Bizning fikrimizcha, ma’ruza materialini oqilona qurish va innovatsion metodika, xususan, o’qituvchi uchun talaba shaxsiga yo’naltirilgan mashg’ulotlarni amaliy tashkil etishda muhim vositalar hisoblanadigan, xususan, elektron o’quv-metodik majmua va mobil ilovadan foydalanish orqali muammolarni bartaraf etish mumkin. Elektron o’quv-metodik majmua va mobil ilovalar yordamida ma’ruzalar odatdagi klassik ma’ruzalardan juda katta farq qiladi va bir qator afzalliklarga ega.

Vujudga kelgan muammolarni hal qilish bilan olgan muhim imtiyozlar bekorga qo’lga kiritilmaydi: bo’lajak pedagoglar nimani yozib olish kerak, nimani desa shunchaki ko’rib olish yetarli bo’lishi borasida bir qarorga kelishning doim ham uddasidan chiqmaydi; har bir ma’ruzaning hajmini oshirish va uni yozib olinadigan ma’lumotlar va namoyish qilish kabi ikki qismga bo’lish bilan mavjud ma’lumotlarni qayta qurish zarur.

Elektron o‘quv-metodik majmua va mobil ilovadan foydalanib o‘tkaziladigan ma‘ruzalarning afzalliklari:

O‘rganilayotgan tizim mos kelgan misolni bajarishda darhol namoyish qilinadi. Olingan bilimlarning ko‘rgazmaligi oshadi, ma‘ruza konspektlarini yozishda muayyan ishlab chiqilgan dasturlar qo‘llaniladi. Har bir mavzu bo‘yicha nazariy material sxemalar, rasmlar bilan mustakamlanadi;

Ma‘ruza jarayonida nazariy materialni ko‘rsatadigan ko‘plab misollarni qo‘llash imkoni mavjud bo‘ladi;

Nazariy materialni namoyish qiladigan misollarning ko‘p sonliligi oliy ta‘lim talabalarining diqqatini ko‘proq vaqt ushlab turish imkonini beradi. Binobarin, auditoriyada tartibni saqlab turish uchun kam vaqt sarflanadi.

Amaliyot, ma‘ruza o‘qiyotganda multimedia uskunalari, mobil ilova va elektron o‘quv-metodik majmuadan foydalanishning afzalligini ko‘rsatiladi. Bu holda talabalar olgan ma‘lumotlariga ko‘proq qiziqishadi, chunki ular ishda bevosita ishtirok etish va o‘rganilayotgan materialning mohiyatini tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bundan kelib chiqadiki, pedagogik loyihalashtirish moxiyatini aniq va ravshan tushunib olish va uni pedagogik innovatika qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olgan holda amalga oshirish talab etiladi. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, pedagogik amaliyot jarayonida talabalar dars jarayonida amaliy usullarni qo‘llashi, ularning raqobatbardoshlik, yangiliklarga intilish sifatlarini shakllantirish uchun maksimal darajada yordam beradi, chunki bu zamonaviy raqamli usullarda talabalar bilan ishlash uchun turli ish faoliyatlari birlashgan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinovning tashkil etilishi va natijalarning tahlili bayon qilingan, raqamli pedagogik muhitda talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish samaradorligi asoslangan.

